SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI

ILASHOV BAXTINUR SHERALI O‘G‘LI

BARQAROR QISHLOQ XO‘JALIGI AMALIYOTLARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI IQTISODIY BAHOLASH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand-2026

UO‘K: 631.16:631.164.6

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economic sciences

Ilashov Baxtinur Sherali o‘g‘li

Barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini iqtisodiy baholash (Samarqand viloyati misolida).....3

Ilashov Bakhtinur Sherali ugli

Economic evaluation of the impact of sustainable agricultural practices on production efficiency (in case of Samarkand region).....……...26

Илашов Бахтинур Шерали угли

Экономическая оценка влияния устойчивых методов ведения сельского хозяйства на эффективность производства (на примере Самаркандской области).....…….....47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……51

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI

ILASHOV BAXTINUR SHERALI O‘G‘LI

BARQAROR QISHLOQ XO‘JALIGI AMALIYOTLARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI IQTISODIY BAHOLASH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand-2026

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt3700 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (samaguni.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Babaxolov Sherzod Baxtiyorovich** iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Janibekov Nodir Davranovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Rustamova Iroda Baxromjonovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti**

Disssertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli ilmiy kengashning «_____» _____ 2026-yil soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo‘rg‘oni, A.Temur ko‘chasi, 7-uy,. Tel. +998 66 492 81 16, e-mail: info@samaguni.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo‘rg‘oni, A.Temur ko‘chasi, 7-uy,. Tel. +998 66 492 81 16). Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «___»_____kuni tarqatildi

(2026 yil _____dagi №____raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.T.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.B.Babaxolov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.f.d., (PhD)

O.Murtazayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Qishloq xo‘jaligi global miqyosda murakkab va ziddiyatli vazifani bajaradi. Bir tomondan, u aholi soni ortib borayotgan sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashi kerak. Ikkinchi tomondan, agrar ishlab chiqarish yer, suv, energiya va biologik resurslarga kuchli bosim o‘tkazadi. Yer unumdorligining pasayishi, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va oziq-ovqat yetkazib berish tizimlarining beqarorlashuvi ushbu ziddiyatni yanada kuchaytirmoqda. Natijada agrar sektor oldida faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki resurslardan tejamkor foydalanish va ekologik barqarorlikni saqlash vazifasi ham turibdi.

Markaziy Osiyo bu muammolar keskin namoyon bo‘ladigan mintaqalardan biridir. Mintaqa qishloq xo‘jaligi asosan sug‘oriladigan dehqonchilikka tayanadi, mavjud suv resurslari esa transchegaraviy xarakterga ega. Qurg‘oqchil iqlim, sug‘orish tizimlarining eskirganligi, yerlarning sho‘rlanishga moyilligi va suvdan foydalanish samaradorligining pastligi ishlab chiqarish barqarorligini cheklaydi. Bunday sharoitda suv tanqisligi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy muammo sifatida ham namoyon bo‘ladi. Chunki agrar sektor mintaqada qishloq aholisi bandligi va daromadining muhim manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shunga qaramay, agrar siyosat va amaliy islohotlarda ko‘pincha ishlab chiqarish hajmini saqlash, eksport salohiyatini kengaytirish va qisqa muddatli iqtisodiy natijalarga erishish ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Bu esa tabiiy resurslarning uzoq muddatli holati, tuproq unumdorligi va ekotizim barqarorligini yetarli darajada hisobga olmaslik xavfini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini iqtisodiy samaradorlik bilan bog‘liq holda o‘rganish Markaziy Osiyo sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu muammo — ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni fermer xo‘jaliklari darajasida baholash zaruratidan kelib chiqadi.

O‘zbekistonda oxirgi yillarda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va barqaror ishlab chiqarish tizimlariga o‘tish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasida shunday deydi “... Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Aksariyat hudularimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash shular jumlasidandir.” Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, hukumat tomonidan barqaror qishloq xo‘jaligi sohasidagi izchil islohotlarga qaramasdan, fermerlar yangi texnologiya va amaliyotlarni joriy etishda ekologik foydadan ko‘ra iqtisodiy natijalarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shu sababli barqaror amaliyotlarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini ilmiy asosda baholash va aniq hududiy sharoitda dalillarga tayangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasida agrar sohaning rivojlanishiga oid bir qator strategik hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishga muayyan hissa qo‘shadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 3-fevraldagi PF-615-sonli “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni, “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-233-sonli Qarori, shuningdek 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-269-sonli “Respublikada kartoshka yetishtirishni ko‘paytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, hamda ushbu yo‘nalishga aloqador boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.

Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini barqaror rivojlantirish, iqlim o‘zgaruvchanligi, yer resurslarining sifat jihatidan yomonlashuvi va suv tanqisligi kabi dolzarb masalalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida hal etish hamda ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy natijadorligini yaxshilash yo‘nalishida D.Rigby, F.Benitez-Altuna, F.Zahm, J.Pretty, M.Farrel, C.Cobb, T.Coelli, J.Jondrow, L.Latruffe, M.Girardin[1] kabi xorij olimlari tadqiqotlar olib borganlar.

Yurtimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining atrof-muhitga ta’siri va barqaror dehqonchilik tamoyillarining tatbiq etilishi yo‘nalishidagi izlanishlar Sh.Babaxolov, F.Ahrorov A.Tadjiyev, N.Djanibekov, I.Bobojonov va I.Rustamovalar ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligida resurslardan optimal foydalanish, ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga omillar ta’sirini O.Murtazayev, Sh.Hasanov, K.Akramov, G‘.Sanayev, M.Djurayeva, A.Karimovlar empirik tahlil qilishgan[2]. Mavjud ilmiy

[1] Rigby, D., Woodhouse, P., Young, T., & Burton, M. (2001). Constructing a farm level indicator of sustainable agricultural practice. *Ecological economics*, *39*(3), 463-478; Benitez-Altuna, F., Trienekens, J., Materia, V. C., & Bijman, J. (2021). Factors affecting the adoption of ecological intensification practices: A case study in vegetable production in Chile. *Agricultural Systems*, *194*, 103283; Zahm, F., Viaux, P., Vilain, L., Girardin, P., & Mouchet, C. (2004). The IDEA method (Farm Sustainability Indicators): A diagnostic assessment method to make the transition from the concept of sustainability to its assessment using indicators; Pretty, J., Toulmin, C., and Williams, S. (2011). Sustainable intensification in African agriculture. Int. J. Agric. Sustain. 9, 5–24; Farrell, M. J. (1957). "The Measurement of Productive Efficiency". *Journal of the Royal Statistical Society*, Series A, 120(3), 253-290; Cobb, C.W., & Douglas, P.H. (1928). "A Theory of Production." *American Economic Review*, 18(1), 139-165; Jondrow J, Lovell CAK, Materov IS, Schmidt P (1982) On the estimation of technical efficiency in the stochastic frontier production function model. J Econom 19(2–3):233–238; Latruffe, L., Diazabakana, A., Bockstaller, C., Desjeux, Y., Finn, J. A., Kelly, E., Ryan, M., & Uthes, S. (2016). Measurement of sustainability in agriculture: a review of indicators. Studies in Agricultural Economics, 118(3), 123–130; Girardin, M. (2022). Organic Dairy Production (pp. 830–835). Elsevier eBooks

[2] Babakholov, S., & Hasanov, S. (2024). Perceptions towards climate change, water scarcity and adaptation strategies: Case of the Zerafshan River Basin in Uzbekistan. *Italian Review of Agricultural Economics (REA)*, *79*(2), 19-33; Ahrorov, F. (2024). Барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантириш: Ўзбекистонда экологик деҳқончилик ва

adabiyotda barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlari, ularning qo‘llanilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hamda ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari bo‘yicha bir qator izlanishlar amalga oshirilgan. Shunga qaramay, barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlari va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi bevosita sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar hozircha yetarli darajada emas. Ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish uchun mazkur yo‘nalishda empirik tahlillarga asoslangan tadqiqotlar o‘tkazish va ilmiy-amaliy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi fermer xo‘jaliklarida barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini qo‘llash orqali ekologik barqarorlik hamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishda barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini qo‘llashning iqtisodiy-ijtimoiy zaruriyatini nazariy asoslash;

qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish barqarorligini baholashga doir xorij tajribalarini o‘rganish;

fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorlik hamda ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlarini baholashga oid zamonaviy uslubiyotlar yondashuvlar va tajribalarni o‘rganish;

qishloq xo‘jaligida ekologik barqarorlik indeksini hisoblash uslubiyotini takomillashtirish;

Samarqand viloyatida fermer xo‘jaliklarining qo‘llayotgan barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlari asosida ekologik barqarorlik darajasini baholash yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazish va ekonometrik tahlillarni amalga oshirish;

respublikamiz qishloq xo‘jaligi tizimida Samarqand viloyati misolida Respublikamiz qishloq xo‘jaligi tizimida Samarqand viloyati misolida ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmning amaliy xaritasini ishlab chiqish;

Samarqand viloyatida kartoshka va bug‘doy yetishtirish yalpi hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish tendensiyasining prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyatidagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tizimida ishlab chiqarish ekologik barqarorlik darajasini aniqlash va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichiga ta’sirini baholash jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

органик маҳсулотлар етиштиришга ўтиш. *Economics and Innovative Technologies*, *12*(1), 111-118; Tadjiev, A., Djanibekov, N., Soviadan, M. K., & Herzfeld, T. (2025). Participation in informal cooperation in water management and adoption of sustainable agricultural practices: Empirical evidence from Uzbekistan. *Australian Journal of Agricultural and Resource Economics*; Kienzler, K. M., Djanibekov, N., & Lamers, J. P. (2011). An agronomic, economic and behavioral analysis of N application to cotton and wheat in post-Soviet Uzbekistan. *Agricultural Systems*, *104*(5), 411-418; Rustamova, I., Primov, A., Karimov, A., Khaitov, B., & Karimov, A. (2023). Crop diversification in the Aral sea region: long-term situation analysis. *Sustainability*, *15*(13), 10221.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mantiqiy, taqqoslama tahlil, so‘rovnoma o‘tkazish, deskriptiv statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, Stoxastik chegaraviy tahlil (Stochastic frontier analysis) modeli, Tobit modeli hamda ARIMA (o‘rtachaga intiluvchi integratsiyalashgan avtoregressiya) modeli usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fermer xo‘jaliklarida qo‘llanilayotgan qishloq xo‘jaligi amaliyotlari asosida ishlab chiqarish faoliyati ekologik barqarorlik indeksi hisoblangan va uning “past” ($0 \le EBI < 0,3$), “o‘rta” ($0,3 \le EBI < 0,6$) va “yuqori” ($0,6 \le EBI \le 1$) guruhlarga ajratish mezonlari ishlab chiqilgan;

fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuv “barqarorlik indikatori” hamda “davlat imtiyozli kreditlaridan foydalanish” kabi omillarni qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

qishloq xo‘jaligida davlat (State)–ilmiy tadqiqot (Science)–amaliyot (Practice) integratsiyasiga asoslangan uch tomonlama kompleks tizimli yondashuv ishlab chiqilgan hamda ushbu yondashuv doirasida fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik darajasi va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari “TOBIT” modeli asosida ilmiy asoslangan;

Samarqand viloyatida fermer xo‘jaliklarining joriy barqarorlik darajasida kartoshka va bug‘doy yetishtirish hajmlarining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatidagi fermer xo‘jaliklarida kartoshka va bug‘doy yetishtirishda qo‘llanilayotgan qishloq xo‘jaligi amaliyotlari asosida barqarorlik indeksi hisoblangan va barqarorlik darajasining “past” ($0 \le EBI < 0,3$), “o‘rta” ($0,3 \le EBI < 0,6$) va “yuqori” ($0,6 \le EBI \le 1$) mezonlari ishlab chiqilgan. Natijada jami o‘rganilgan 121 nafar kartoshka yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarining 42 tasi yoki 35 foizi “past” darajadagi, 39 tasi yoki 32 foizi “o‘rta” darajadagi, 40 tasi yoki 33 foizi “yuqori” ekologik barqarorlik darajasida ekanligi, bug‘doy yetishtirishda esa jami 196 ta fermer xo‘jaliklarning 137 tasi yoki 70 foizi “past”, 29 tasi yoki 15 foizi “o‘rta”, 30 tasi yoki 15 foizi “yuqori” darajadagi ekologik barqarorlikka erishgani aniqlangan. Natijada fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish ekologik barqarorlik darajasi kartoshka yetishtirishda bug‘doy yetishtirishga nisbatan yuqori darajada ekanligi aniqlangan;

Fermer xo‘jaliklari misolida ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni baholashda “barqarorlik indikatori” hamda “davlat imtiyozli kreditlaridan foydalanish” kabi omillardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikka yuqori statistik aniqlikda ijobiy ta’sir etuvchi omil ekanligi aniqlangan va shu asosda xo‘jaliklarning ishlab chiqarish samaradorligi va ekologik barqarorlik darajasini oshirishga doir strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

qishloq xo‘jaligida davlat (State) – ilmiy tadqiqot (Science) – amaliyot (Practice) uch tomonlama kompleks tizimli yondashuv asosida fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarishdagi ekologik barqarorlik darajasi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan istiqbolli amaliy xaritasi ishlab chiqilgan va

tavsiya etilgan. Natijada fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini 7,6 foizga oshishi Tobit modeli yordamida asoslab berilgan;

Samarqand viloyatidagi kartoshka va bug‘doy yetishtirish hajmlarining joriy barqarorlik darajasida 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari ARIMA modeli asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlari hamda ularning agrar sohadagi iqtisodiy samaradorlikka ta’siri masalalariga oid ilmiy-uslubiy yondashuvlaridan foydalanilganligi; tahlilga jalb qilingan ma’lumotlarning uzoq vaqt davomida to‘planganligi va rasmiy manbalardan olinganligi; empirik bazaning Samarqand viloyati tumanlari bo‘yicha fermer xo‘jaliklari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga tayanishi; ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo‘llanilganligi; shuningdek, erishilgan natijalarning vakolatli organlar tomonidan rasman e’tirof etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fermer xo‘jaliklari darajasida ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni birgalikda baholashga qaratilgan metodik yondashuvni asoslash bilan belgilanadi. Tadqiqotda ekologik barqarorlik indikatorlari shakllantirilib, ularning ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog‘liqligi empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Bu yondashuv barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini faqat ekologik nuqtai nazardan emas, balki ularning iqtisodiy natijalarga ta’siri bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalar asosida fermer xo‘jaliklarida barqaror ishlab chiqarish amaliyotlarini kengaytirish, trening va maslahat xizmatlarini kuchaytirish, shuningdek, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi. Ushbu natijalar davlat boshqaruv organlari, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maslahat xizmatlari, moliyaviy institutlar va fermer xo‘jaliklari uchun amaliy qarorlar qabul qilishda foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari, dissertatsiya materiallari oliy ta’lim muassasalarida “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” va “Atrof-muhit va resurslar iqtisodiyoti” fanlarini o‘qitishda qo‘shimcha ilmiy-uslubiy manba sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini iqtisodiy baholash bo‘yicha olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida: fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyati yekologik barqarorlik darajasini “past”, “o‘rta” va “yuqori” darajali mezonlar asosida baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan indeks Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida fermer xo‘jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (2026-yil 2-fevral) hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/18-sonli ma’lumotnomasi). Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Statistik tahlil va prognozlashtirish departamenti tomonidan amaliyotga qabul qilingan hamda

Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi tizim tashkilotlarida fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyati ekologik barqarorlik darajasini baholash bo‘yicha amaliyotga joriy etilgan. Natijada, jami o‘rganilgan 121 nafar kartoshka yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarining 42 tasi yoki 35 foizi “past” darajadagi, 39 tasi yoki 32 foizi “o‘rta” darajadagi, 40 tasi yoki 33 foizi “yuqori” ekologik barqarorlik darajasida ekanligi, bug‘doy yetishtirishda esa jami 196 ta fermer xo‘jaliklarning 137 tasi yoki 70 foizi “past”, 29 tasi yoki 15 foizi “o‘rta”, 30 tasi yoki 15 foizi “yuqori” barqarorlik darajasida ekanligi aniqlangan;

fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishida “barqarorlik indikatori” hamda “davlat imtiyozli kreditlaridan foydalanish” kabi omillar asosida baholash bo‘yicha berilgan taklif Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida fermer xo‘jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (2026-yil 2-fevral) hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/18-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu uslubiy yondashuv Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Agrar sohani iqtisodiy rivojlantirish va moliyalashtirish departamenti tomonidan Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi tizim tashkilotlarida amaliyotga joriy etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarida barqaror amaliyotlar va davlat imityozli kreditlaridan foydalanish asosida ishlab chiqarish samaradorligini 7,1 foizga oshirish imkoniyati mavjudligi asoslangan;

qishloq xo‘jaligida davlat (State)–ilmiy tadqiqot (Science)–amaliyot (Practice) integratsiyasiga asoslangan uch tomonlama kompleks tizimli ishlab chiqilgan yondashuv doirasida fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik darajasi va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari bo‘yicha berilgan takliflar Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida fermer xo‘jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (2026-yil 2-fevral) hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi tomonidan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/18-sonli ma’lumotnomasi). Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Agrar sohani rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligi departamenti tomonidan Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi tizim tashkilotlarida amaliyotga joriy etilgan. Natijada, Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Toyloq va Jomboy tumanlaridagi fermer xo‘jaliklarida berilgan taklif asosida ishlab chiqarish samaradorlik ko‘rsatkichini 7,6 foizga oshirishga erishilgan;

Samarqand viloyatida barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini samarali joriy etish orqali kartoshka va bug‘doy yetishtirish qiymati o‘sishining 2030-yilgacha bo‘lgan prognozi bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga qabul qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/18-sonli ma’lumotnomasi). Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Statistik tahlil va prognozlashtirish bo‘limi tomonidan Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi tizim tashkilotlarida amaliyotga joriy etilgan. Natijada, 2030-yilga borib kartoshka yetishtirish hajmining

prognoz qiymati 1049 ming tonnani va bug‘doy yetishtirish hajmining prognoz qiymati 868,5 ming tonnani tashkil etishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika doirasidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda jami 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta mahalliy nashlarda va 1 ta xalqaro jurnalda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan bo‘lib, jami 143 sahifada bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, uning maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadbiq etilganligi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi hamda uning tarkibiy tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo‘jaligida barqarorlik va samaradorlik konsepsiyalari va ularning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning nazariy asoslanishi va barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarining o‘rni, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashning usullari, ilmiy-uslubiy asoslari, barqarorlik va samaradorlikni bog‘lovchi konsepsiyalar ochib berilgan. Shuningdek, jahonda barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini qo‘llanilishining hozirgi holati tahlili, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasidagi amalga oshirayotgan islohotlarining xususiyatlari o‘rganilgan hamda ushbu tajribalarni O‘zbekistonda joriy qilish imkoniyatlari tahlil qilinib, ular asosida ishlab chiqilgan xulosa va takliflarning mazmun-mohiyati nazariy jihatdan asoslangan.

Olimlar o‘z tadqiqotlarida barqaror qishloq xo‘jaligini “hozirgi avlodning oziq-ovqat va bioresurs ehtiyojlarini qondira oladigan, shu bilan birga kelajak avlodlar ehtiyojlarini xavf ostiga qo‘ymaydigan tizim” deb ta’riflaydi[3]. Bu yondashuvda uchta asosiy o‘lchov mavjud:

1. Ekologik barqarorlik – tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslarini muhofaza qilish, pestitsid va o‘g‘itlardan oqilona foydalanish;
2. Iqtisodiy barqarorlik – foydalilik, rentabellik, bozor barqarorligi;
3. Ijtimoiy barqarorlik – fermerlarning daromad barqarorligi, qishloqdagi bandlik, gender tenglik, ta’lim va sog‘liqni saqlashga kirish imkoniyati.

Barqaror qishloq xo‘jaligini joriy etish natijasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini agroekotizimga zarar yetkazmasdan ta’minlash imkoniyati mavjud. Bu jarayonda barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini (almashlab ekish, aralash ekin ekish, organik o‘g‘itlardan foydalanish, ekinlarni deiversifikatsiya qilish, shudgorlamasdan ekin ekish) ishlab chiqarishda qo‘llash asosiy rol o‘ynaydi.

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning barqarorlik holatini doimiy baholab borish hamda ushbu jarayonda ularni rag‘batlantirishga qaratilgan qishloq xo‘jaligi islohotlarini izchil ravishda joriy etib borilishi, shuningdek, mazkur jarayondagi yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun tadqiqotlarni empirik tadqiqotlarni uzluksiz amalga oshirilib borishi o‘ta dolzarb vazifa hisoblanadi.

Barqaror qishloq xo‘jaligini baholash bo‘yicha indikatorlarni qo‘llashda xorij tajribasi o‘rganilib taqqoslama tahlil qilingan (1-jadval).

[3] WCED (World Commission on Environment and Development), 1987. Our Common Future. Oxford University Press, New York, 383 pp.

1-jadval

Barqaror qishloq xo‘jaligini baholash bo‘yicha indikatorlarni qo‘llashda dunyo tajribasi[4].

Qit’a	Barqarorlikni baholashdagi asosiy metodlar	Asosiy foydalanilayotgan barqarorlik amaliyotlari	Erishilgan yutuqlar	Barqarorlikka erishishdagi asosiy to‘siqlar
Yevropa	RISE 3.0, SOSTARE, ISAP, AFI, IDEA, SAFE, MOTIFS, SIRIUS, LCA, MCDA	Aralash ekin ekish, organik o‘g‘itlar, almashlab ekish,	Hosildorlik va bioxilma-xillik o‘rtasida muvozanat, subsidiyalar bilan bog‘langan barqarorlik	Sharqiy va G‘arbiy Yevropa o‘rtasidagi islohotlardagi tafovutlar, texnik bilim yetishmasligi
Shimoliy Amerika	RISE, MESMIS, USDA ASI, AEIs, LCA, SAFA	Shudgorlamasdan ekin ekish, dehqonchilik va chorvachilikni integratsiyalash, qoplama ekinlar ekish	Ekologik muhofaza va ishlab chiqarish integratsiyasi, hosildorlikning oshishi	Bozorlarga kirishdagi to‘siqlar, agrar islohotlar ishlab chiqishda muvofiqlik muammolari
Janubiy Amerika	SIRIUS, MESMIS, SIAS, ISAP, ASI, SAFA, LSI, MCDA	Agroekologik innovatsiyalar, ekinlar diversifikatsiyasi, mulchalash	Mahalliy innovatsiyalar orqali agrodiversifikatsiya, daromadlar oshishi	Dastlabki xarajatlar yuqoriligi, tashqi resurslarga bog‘liqlik
Osiyo	SAFA, RISE, PSDCIFASA, CSI, MCDA, ASI	Konservatsion dehqonchilik, aralash ekin ekish, organik dehqonchilik	Suv samaradorligi, issiqxona gazlari kamayishi, iqtisodiy foydalilik	Ma’lumot yetishmovchiligi, institutsional qo‘llab-quvvatlash pastligi
Afrika	RISE, IDEA, SIRIUS, MESMIS, SAFE, SLF, API	Shudgorlamasdan ekin ekish, tabiiy o‘g‘itlar, aralash ekin ekish,	Oziq-ovqat xavfsizligi va fermer daromadining yaxshilanishi	Yerga egalik huquqining noaniqligi, moliyaviy resurslar cheklanganligi
Avstraliya	AFSA, LCI, TBL, AEIs	Ekin qoldiqlarini qoldirish, nazoratli texnika harakati asosidagi dehqonchilik	Tuproq eroziyasi kamayishi, hosildorlikning barqarorligi	Iqlim sharoitiga bog‘liqlik, iqtisodiy barqarorlikning zaifligi

[4] O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

Dissertatsiyaning “**Respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida barqarorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlarining holati va mavjud muammolar**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning ilmiy-uslubiy, amaliy ishlanma hamda natijalari asosida Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligi sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi tahlil qilingan, viloyatdagi Zarafshon daryosi yuqori oqimida joylashgan tumanlarda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik darajasi va ishlab chiqarish samaradorlik ko‘rsatkichlari, shunindek, ishlab chiqarish samaradorligiga omillarning marjinal ta’siri empirik tahlillar asosida ishlab chiqilgan xulosa va takliflarning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra Samarqand viloyatida so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi o‘sib borayotganiga qaramasdan, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari miqdori yildan-yilga kamayib bormoqda.

2-jadval

Samarqand viloyatidagi qishloq xo‘jaligi ekin maydoni va mahsulotlari hajmi ko‘rsatkichlari, 2018-2024-yillar[5]

Yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari, ming gektar	351833	328107	340750	359283	336799.7	320047	320041
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, mlrd. so‘m	25658	28379.5	33759.4	41206.1	42088.9	49025.9	57452

Respublikada qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajm va sifat jihatdan oshib borishiga qaramasdan, oxirgi 10 yillikda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning kamayib borishi, suv tanqisligi muammosining tobora jiddiylashishi va iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirlarining oshib borishi natijasida ushbu sohada faoliyat yuritish qiyinlashmoqda. Shu bilan birga muttasil ko‘payib borayotgan aholi soni qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin oshishiga olib kelmoqda. Natijada fermer va dehqonlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish uchun mineral o‘g‘itlar, shuningdek, kasalliklar va hasharotlarga qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan me’yoridan ortiq foydalanishmoqda.

Dunyo tajribasida olimlar fermer xo‘jaliklarining fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish jarayonida nafaqat hosildorlikni oshirib yuqori hosil olish, balki tabiatga tashqi ta’sirlarni kamaytirgan holda sog‘lom qishloq xo‘jaligi ekotizimini asrab qolish uchun qishloq xo‘jaligida ekologik barqarorlik konsepsiyasidan foydalanishmoqda. Mazkur tadqiqotda fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik indeksi ko‘rsatkichini baholash uslubiyoti takomillashtirildi. Buning uchun Dan Rigby va hammualiflar tomonidan taklif etilgan uslubiyot asos qilib olindi[6].

[5] Samarqand viloyati statistikasi boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

[6] Rigby, D., Woodhouse, P., Young, T., & Burton, M. (2001). Constructing a farm level indicator of sustainable agricultural practice. *Ecological economics*, *39*(3), 463-478.

3-jadval

Barqarorlik o‘lchovlari bo‘yicha har bir ishlab chiqarish bosqichining baholanishi[7].

Ishlab chiqarish bosqichlarida qo‘llanilgan amaliyotlar	Tashqi resurslardan foydalanishni kamaytirish	Qayta tiklanmaydigan resurslardan foydalanishni kamaytirish	Tabiiy-biologik jarayonlarni rag‘batlantirish	Mahalliy bioxilma-xillikni rag‘batlantirish	Jami
Urug‘ manbasi					
Sotib olingan urug‘	0	0	0	0	0
Xo‘jalikning o‘z urug‘i	1	0	0	0	1
Tuproq unumdorligini boshqarish					
Ko‘proq mineral, kamroq organik o‘g‘it qo‘llash	-1	-1	-1	0	-3
Ikkala o‘g‘itdan vaziyatdan kelib chiqib unumli foydalanish	0	0	0	0	0
Kamroq mineral, ko‘proq organik o‘g‘itdan foydalanish	0	1	1	0	2
Kasallik va zararkunandalarni nazorat qilish					
Kimyoviy vositalardan foydalanish	-1	-1	-3	-3	-8
Kimyoviy vositalarsiz profilaktik amaliyotlar	2	2	2	2	8
Begona o‘tlarni nazorat qilish					
Kimyoviy gerbitsidlar	-1	-1	-1	-1	-4
Kimyoviy vositalarsiz profilaktik amaliyotlar	1	1	1	1	4
Ekinlarni boshqarish amaliyotlari					
Kartoshkani takroriy ekish	0	0	-1	0	-1
Almashlab ekish (boshoqlilar bilan)	0.5	0.5	1	0	2
Almashlab ekish (dukkaklilar bilan)	1	1	1	0	3

Biz fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik indeksini hisoblash uchun xo‘jalikdagi ishlab chiqarish jarayonining besh bosqichini qamrab olganmiz. Bular: 1) urug‘ manbasi; 2) yerni o‘g‘itlashdagi organik va mineral o‘g‘itlarning hajmi; 3) kasallik va zararkunandalarni nazorat qilish amaliyotlari; 4) begona o‘tlarni nazorat qilish amaliyotlari va 5) ekinlarni boshqarish amaliyotlari (3-jadvalga qarang). Har bir ishlab chiqarish bosqichi bo‘yicha xo‘jaliklarning ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari hisoblangandan so‘ng quyidagi formula asosida yagona indeksga jamlandi:

$$EBI_i = (0{,}05*urug‘\_manba_i) + (0{,}26*tuproq\_unum_i) + (0{,}23*kasallik\_kurash_i) + (0{,}23*begona\_o‘t\_kurash_i) + (0{,}23*ekinlar\_boshqarish_i) \quad (1)$$

[7] O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

Bu yerda:

EBI_i = *i*-fermerning ekologik barqarorlik indeksi;

$urug'\_manba_i$ = *i*-fermerning urug‘ manbasi bo‘yicha barqarorlik ko‘rsatkichi;

$tuproq\_unum_i$ = *i*-fermerning tuproq unumdorligini boshqarish bo‘yicha barqarorlik ko‘rsatkichi;

$kasallik\_nazorat_i$ = *i*-fermerning kasallik va zararkunandalarni nazorat qilish bo‘yicha barqarorlik ko‘rsatkichi;

$begona\_o't\_nazorat_i$ = *i*-fermerning begona o‘tlarni nazorat qilish bo‘yicha barqarorlik ko‘rsatkichi;

$ekinlar\_boshqarish_i$ = *i*-fermerning ekinlarni boshqarish bo‘yicha barqarorlik ko‘rsatkichi.

Mazkur formulada keltirilgan indikatorlar va ularga biriktirilgan vaznlar ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi nisbiy ahamiyatiga ko‘ra aniqlangan. Indeks tuzishda vaznlarni belgilash jarayoni tasodifiy emas, balki ilmiy adabiyotlar, mantiqiy-normativ yondashuv hamda tadqiqot obyekti xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

4-jadval

Fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik indeksi ko‘rsatkichlari (kartoshka yetishtirishda)[8]

Tumanlar nomi	Kuzatuvlar soni	O‘rtacha ekologik barqarorlik indeksi	Stan. og‘ish	Min.	Mak.
Bulung‘ur	44	0.38	0.28	0	0.94
Toyloq	52	0.56	0.3	0.09	1
Jomboy	25	0.45	0.24	0.08	1
Jami	121	0.47	0.29	0	1

Tahlil natijalariga ko‘ra kartoshka yetishtirishda Toyloq tumanidagi fermer xo‘jaliklarida o‘rtacha ekologik barqarorlik darajasi (0,56) Bulung‘ur tumanidagi ko‘rsatkichdan 0,19 koeffitsiyent yoki 19 foizga hamda Jomboy tumanidagi ko‘rsatkichdan 11 foizga yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bunda Toyloq tumanidagi fermer xo‘jaliklarining organik o‘g‘itlardan nisbatan ko‘proq foydalanishi hamda kasallik va begona o‘tlarga qarshi kimyoviy vositalardan kamroq foydalanishi muhim omillar bo‘ldi.

Fermer xo‘jaliklarining bug‘doy yetishtirishda hisoblangan ekologik barqarorlik darajalarini tumanlar bo‘yicha ma’lumoti tahlil qilinganda tumanlar bo‘yicha ishlab chiqarish ekologik barqarorlik darajalari bir-biriga nisbatan yaqinligini ko‘rish mumkin. O‘rtacha ekologik barqarorlik darajasi eng baland Bulung‘ur tumani (0,3 koeffitsiyent) va eng past Jomboy tumani (0,24 koeffitsiyent) o‘rtasida 0,06 koeffitsiyent yoki 6 foiz farq borligini ko‘rish mumkin (5-jadvalga qarang).

[8] To‘plangan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

5-jadval

Ekologik barqarorlik indeksi natijalari (bug‘doy yetishtirishda)[9]

Tumanlar nomi	Kuzatuvlar soni	O‘rtacha ekologik barqarorlik indeksi	Stan. og‘ish	Min.	Mak.
Bulung‘ur	72	0.3	0.23	0	1
Toyloq	63	0.27	0.22	0	0.89
Jomboy	61	0.24	0.21	0	0.74
Jami	196	0.27	0.22	0	1

Shuningdek, o‘rtacha ekologik barqarorlik darajalari kartoshka yetishtirishga nisbatan bug‘doy yetishtirishda deyarli 2 barobar past ekanligini kuzatish mumkin. Bu esa, albatta, ekinlarni yetishtirish jarayonidagi qo‘llanilayotgan amaliyotlar bilan bog‘liq. Ya’ni bug‘doy yetishtirishda kasallik va begona o‘tlarni nazorat qilish tadbirlarida kimyoviy vositalardan ko‘proq foydalanishi hamda almashlab ekish amaliyotidan juda kam foydalanilishi kartoshka yetishitirishga nisbatan ekologik barqarorlik darajasining 2 barobar pastroq chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

6-jadval

Kartoshka yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik indeksi ko‘rsatkichlari asosida guruhlanishi[10]

Barqarorlik bo‘yicha guruhlar	Fermer xo‘jaliklari soni	O‘rtacha ekologik barqarorlik indeksi	Min.	Mak.
Past	42	0.161	0	0.281
O‘rta	39	0.436	0.302	0.586
Yuqori	40	0.835	0.677	1
Jami	121	0.472	0	1

Shundan so‘ng fermer xo‘jaliklarini ekologik barqarorlik darajalari bo‘yicha guruhlash mezonlari ishlab chiqildi. Buning uchun uch kvantil[11] usulidan foydalanildi. Ushbu yondashuv fermer xo‘jaliklari ekologik barqarorlik indeksi qiymatlarining tabiiy taqsimotini hisobga olib, ularni uchta nisbatan teng qismlarga ajratishga imkon beradi. Ushbu usul statistik tahlilda keng qo‘llaniladigan taqsimotga asoslangan guruhlash yondashuvidir. Uning mohiyati shundan iboratki, mavjud indeks qiymatlari o‘sish tartibida joylashtiriladi va butun tanlanma quyidagi 3 ta guruhga bo‘linadi:

- 1-guruh (past darajadagi ekologik barqarorlik) = $[min(ESI); Q1)$
- 2-guruh (o‘rta darajadagi ekologik barqarorlik) = $[Q1; Q2)$
- 3-guruh (yuqori darajadagi ekologik barqarorlik) = $(Q_2;\ max(ESI)]$

[9] To‘plangan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

[10] To‘plangan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

[11] Kvantil - bu ma’lumotlar to‘plamidagi kuzatuvlarning ma’lum foizi undan kichik yoki unga teng bo‘lgan chegaraviy qiymatni ifodalovchi statistik ko‘rsatkichdir.

Bu yerda:

- $Q1 = 33.3$ foizli kvantil
- $Q2 = 66.6$ foizli kvantil

Mazkur tahlil asosida fermer xo‘jaliklarini ekologik barqarorlik indeksi ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlash mezonlari ishlab chiqildi. Natijalarga ko‘ra, ekologik barqarorlik indeksi 0,3 koeffitsiyentdan kam bo‘lganda past barqarorlik, 0,3 dan 0,6 koeffetisyentgacha bo‘lganda o‘rta barqarorlik va 0,6 dan 1 koeffitsiyentgacha bo‘lganda yuqori barqarorlikka ega deb topildi.

7-jadval

Bug‘doy yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarining ekologik barqarorlik indeksi ko‘rsatkichlari asosida guruhlanishi[12]

Barqarorlik bo‘yicha guruhlar	Fermer xo‘jaliklari soni	O‘rtacha ekologik barqarorlik indeksi	Min.	Mak.
Past	137	0.15	0	0.281
O‘rta	29	0.4	0.307	0.57
Yuqori	30	0.71	0.605	1
Jami	196	0.27	0	1

Tahlilning navbatdagi bosqichida yuqorida ishlab chiqilgan mezonlar asosida xo‘jaliklarnig bug‘doy yetishtirishda qayd etgan ekologik barqarorlik indeksi ko‘rsatkichlari asosida guruhlarga bo‘lindi. Natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, fermer xo‘jaliklarining 70 foiz qismi past darajadagi barqarorlik guruhiga mansub va o‘rta va yuqori barqarorlik ko‘rsatkichiga erishgan xo‘jaliklar jami xo‘jaliklarning mos ravishda 14,8 foiz va 15,3 foiz qismini tashkil etadi. O‘rtacha ekologik barqarorlik ko‘rsatkichi esa 0,27 koeffitsiyent yoki 27 foizni tashkil etadi (7-jadvalga qarang).

Fermer xo‘jaliklarining texnik samaradorlik ko‘rsatkichlari Stoxastik chegaraviy tahlil modelining Kobb-Duglas ishlab chiqarish funskiyasi asosida hisoblandi va samaradorlikka ishlab chiqarish resurslarining ta’siri baholandi.

Stoxastik chegaraviy model natijalariga razm solinganda, ishchi kuchi sarfidan tashqari barcha omillar kartoshka yalpi hosiliga ijobiy ta’sir qilganini ko‘rish mumkin. Xususan, tahlil natijalariga ko‘ra urug‘ sarfining 1 foizga oshishi hosildorlikni 0,76 foizga oshiradi. Bu natija urug‘ resursi tadqiq etilgan xo‘jaliklarda eng muhim ishlab chiqarish omili ekanini ko‘rsatadi. Urug‘ resursi sarfi bug‘doy yetishtirishda ham hosildorlikka ijobiy ta’sir qilmoqda va urug‘ sarfining 1 foizga oshishi hosildorlikni 0,77 foizga oshirishi aniqlangan. Sifatli va tuproq-iqlim sharoitiga mos urug‘ navini tanlash orqali xo‘jaliklari hosildorlikni yuqori oshirish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari organik o‘g‘itlar sarfi ham hosildorlikka ijobiy ta’sir etishi aniqlangan (β=0.047, p=0.03). Organik o‘g‘itlash tuproqning strukturasini yaxshilashi, nam saqlash va mikrobiologik faoliyatni oshirish orqali hosildorlikka o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Kartoshka yetishtirishdan farqli ravishda

[12] To‘plangan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

bug‘doy yetishtirishda kimyoviy o‘g‘itlar sarfining hosildorlikka ta’siri sezilarli yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Ya’ni mineral o‘g‘itlarning sarfini 1 foizga oshishi bug‘doy hosildorligini 0,16 foizga oshirishi mumkinligi tahlil natijalaridan aniqlangan.

8-jadval

Stoxastik chegaraviy tahlil modeli orqali aniqlangan ishlab chiqarish omillarning bug‘doy va kartoshka hosildorligiga ta’siri natijalari[13]

Omillar	Bug‘doy yetishtirishda	Kartoshka yetishtirishda
	Koeffitsiyentlar	Koeffitsiyentlar
